



PREZIDENTLIK INSTITUTINI AXBOROT TAHDIDLARIDAN HIMOYALASHGA OID ILMIY YONDASHUVLAR

Yunusov Javoxirbek Faxriddin o'g'li

O'zbekiston milliy universiteti Siyosatshunoslik yo'nalishi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15614515>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-June 2025 yil

Ma'qullandi: 05-June 2025 yil

Nashr qilindi: 07-June 2025 yil

KEY WORDS

Axborot xavfsizligi, prezidentlik instituti, ijtimoiy tarmoqlar, raqamlashtirish, milliy xavfsizlik, kiberxavfsizlik, global axborot makoni, psixologik ta'sir.

ABSTRACT

Ushbu maqolada globallashtirish va raqamlashtirish sharoitida prezidentlik institutini axborot tahdidlaridan himoya qilish masalalariga bag'ishlangan. Maqolada axborot xavfsizligining davlat milliy xavfsizligidagi o'rni, prezidentlik institutiga qarshi axborot tahdidlarining xususiyatlari va ularni bartaraf etish yo'llari muhokama qilinadi.

Hozirgi globallashtirish jarayonlari davom etayotgan bir sharoitda, xalqaro munosabatlar tizimi sezilarli transformatsiyalarga duch kelmoqda. Global miqyosdagi harbiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy dinamikalar xalqaro hamda mintaqaviy xavfsizlikka tahdid soluvchi omillarning spektrini kengaytirmoqda. Ushbu jarayon geosiyosiy qarama-qarshiliklarning intensivlashuvi, mojarolarni qurolli kuch ishlatish orqali hal qilishga moyillikning ortishi, ommaviy qirg'in qurollarini qo'llash ehtimoliyatining yuksalishi, xalqaro terrorizm va ekstremizm faoliyatining avj olishi, shu bilan birga axborot va kiber makondagi raqobatning keskinlashuvi kabi parametrlarni o'z ichiga olgan holda izohlanadi.

DataReportal.com ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil yanvar holati bo'yicha O'zbekistonda Internetdan foydalanuvchi aholi soni 32,7 mln nafarni, umumiy aholining 89%ni tashkil qiladi, shundan 11,7 mln. nafari yoki umumiy aholining 31,7%i ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilari hisoblanadi.

Xususan, "Telegram"da 22 mln, "Instagram"da 11,7 mln, "Facebook"da 2,30 mln, "TikTok"da 2,57 mln, "X" (Twitter) da 250 ming¹ nafar o'zbekistonlik foydalanuvchi mavjud bo'lib, ularning ko'pchiligini yoshlar tashkil qilmoqda. Sodar etilayotgan axborot tahdidlarining katta qismi aynan shu ijtimoiy tarmoq va messengerlardan tashkil etilmoqda.

Yuqoridagidan kelib chiqib, axborot oqimlarini boshqarish, nazorat qilish va cheklash imkoniyatlari tobora murakkablashishi, bu esa ushbu oqimlarning inson ongiga turli metodlar orqali infiltratsiya qilib, ijobiy yoki salbiy kognitiv va ijtimoiy effektlarni keltirib chiqarishiga olib kelmoqda. Global miqyosda sakkiz milliarddan ziyod aholiga ega bo'lgan Yer sayyorasida ushbu shaxslarga yo'naltirilgan axborot hajmi undan ham yuqori ko'rsatkichlarni tashkil etadi. Shu bilan birga, ushbu axborot massivining qaysi qismi obyektiv xarakterga ega bo'lib,

qaysi qismi muayyan subyektlarning strategik manfaatlarini targ'ib qilishga xizmat qilishini differentsiatsiya qilish jarayoni tobora muammoli tus olmoqda.


Bugungi kunda axborot inson ongi va tafakkuriga ta'sir o'tkazuvchi, butun insoniyat hayoti va taqdirini muhim yo'nalishlarga burib yuboruvchi kuchli vositaga aylangan. Axborot ijobiy, gohida salbiy mohiyatga ega bo'lib, eng samarali qurol sifatida namoyon bo'lmoqda. "Kimki axborotga ega bo'lsa, u dunyoga egalik qiladi", degan fikr bugungi kunda keng miqyosda e'tirof etilmoqda.

Axborot bilan ta'minlanganlik darajasi insonning o'zini anglashida, shuningdek, axborot makonidagi ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy va axloqiy mavqeini belgilashda asosiy omilga aylandi. Axborot orqali zamonaviy psixologik ta'sir texnologiyalarining rivojlanishi inson va jamiyat tafakkurining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Birgina noto'g'ri axborot mamlakatning tinchligini buzib yuborishi yoki bir-biriga qarshi davlatlarni yarashtirib qo'yishi mumkin.

Axborot oqimini to'g'ri yo'naltira olmaslik esa yillar davomida shakllangan ma'naviy qadriyatlarning yemirilishiga, davlatning siyosiy institutlari, xususan, prezidentlik institutiga nisbatan salbiy axborotlarning kelib chiqishiga olib keladi. Shu sababli, axborotni boshqarish va tarqatish jarayonlariga e'tibor qaratish zamon talabiga aylandi.

XXI asr boshiga kelib, texnologiyalar rivojlanishi misli ko'rilmagan darajaga yetdi, ular tufayli insoniyat qulaylik va xavfsizlik darajasining sezilarli o'sishiga erishdi. Shu bilan birga, davlat va jamiyatning axborot-kommunikatsiya tizimlarining ushbu texnologiyalarga bo'lgan misli ko'rilmagan darajadagi qaramligi ko'plab xavf va tahdidlarni keltirib chiqaradi, bu esa axborot xavfsizligini ta'minlashning ahamiyatini yanada oshiradi. Quyidagi 1.1. rasmda M.I. Faleyev va G.S. Chernyxlarining "Davlatning milliy xavfsizligiga axborot sohasidagi tahdidlar" tasnifi keltirilgan.

1.1. rasm - davlatning milliy xavfsizligiga axborot sohasidagi tahdidlar



Hozirgi vaqtda ilmiy hamjamiyatda, davlat va siyosat arboblari hamda kommunikatsiya mutaxassislari orasida davlatning axborot xavfsizligi masalalari faol muhokama qilinmoqda. Bunga qiziqishning ortishi, birinchidan, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan, ikkinchidan, ichki siyosiy va geosiyosiy jarayonlar hamda voqealarning ta'siri bilan bog'liq. Ushbu sohadagi qonunchilikning yaqinda kuchaytirilgan tartibga solinishiga, davlat hokimiyati va mahalliy boshqaruv organlariga tegishli vakolatlarning berilishiga qaramay, milliy axborot xavfsizligiga tahdidlarning oldini olish va ularni samarali bartaraf etish usullarini ishlab chiqish bo'yicha muammolar hanuz dolzarbligicha qolmoqda.

Qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha xavfsizlikni ta'minlash butun davlat va uning asosiy institutlarining birlamchi vazifasi bo'lib kelgan. M.A. Polojixinning fikriga ko'ra, o'z navbatida, jamiyat rivojlanishi bilan xavfsizlikni saqlash masalalari tobora rang-barang bo'lib, unga faqat tarixan shakllangan harbiy, kuch ishlatar jihatlar emas, balki harbiy bo'lmagan vositalar va harakatlarga ham ko'proq e'tibor qaratilmoqda².

S.I. Kuzinaning fikriga ko'ra, "Davlatning axborot xavfsizligi" tushunchasi sobiq sovet davlatlari uchun nisbatan yangi hisoblanadi. Sovet Ittifoqida bu tushuncha keng tarqalmagan edi va faqat 90-yillardan boshlab ilmiy muomalaga asta-sekin kiritila boshlandi, shundan so'ng harbiylar, siyosatchilar va ekspertlar muloqotida rasmiy va doimiy atamaga aylangan³.

Bugungi kunda axborot xavfsizligi tushunchasiga ko'plab ta'riflar berilgan. Axborot xavfsizligi – axborot va tegishli infratuzilmani, shuningdek ma'lumot egalari yoki foydalanuvchilariga zarar etkazish bilan bog'liq tasodifiy yoki qasddan ta'sirlardan himoya qilinganligi. Axborot xavfsizligi – ma'lumotlarning maxfiyligi, yaxlitligi va mavjudligini ta'minlash⁴.

Rossiya Federatsiyasining "Axborot xavfsizligi doktrinasi"da – uning axborot sohasidagi manfaatlari himoyalangan holati tushuniladi, himoyalanganlik holati shaxs, jamiyat va davlatning balansga keltirilgan manfaatlari yig'indisi bilan belgilanadi⁵. Qozog'iston Respublikasi "Milliy xavfsizlik to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra esa, – axborot borasidagi xavfsizlik–davlat axborot resurslarining, shuningdek, axborot sohasida shaxsning huquqlari va jamiyatning manfaatlari himoyalanganlik holatidir⁶.

Buyuk Britaniyalik mutaxassis Ross Anderson axborot xavfsizligini davlat rahbarlari, jumladan Prezident darajasida himoya qilish uchun tizimlarning doimiy yangilanishi va kiberxavflarga moslashishini zarur deb biladi⁷. U davlat rahbarlariga qarshi axborot tahdidlarini davlat homiyligidagi kiberhujumlar, ma'lumotlarni o'g'irlash va manipulyatsiya sifatida tasniflaydi. Andersonning fikricha, bu tahdidlarni bartaraf etish uchun shifrlash texnologiyalari (masalan, AES yoki RSA algoritmlari) va xavfsizlik protokollarini mustahkamlash kerak. Texnologiyalar rivojlanishi bilan birga kiberxavf-xatarlar ham murakkablashib, yangi shakllarga kirib bormoqda. Hukumatlar katta hajmdagi maxfiy va muhim ma'lumotlarni saqlaydi, shuning uchun ularning xavfsizlik tizimlari doimiy yangilanishga muhtoj. Agar bu tizimlar eskirib qolsa yoki zaif bo'lib qolsa, nafaqat davlat manfaatlari, balki fuqarolarning shaxsiy hayoti ham xavf ostida qolishi mumkin.

E.S. Polunin “umuman olganda, davlatning axborot xavfsizligi milliy manfaatlarining axborot sohasida himoyalanganligini anglatadi”⁸. Shundan kelib chiqib, axborot xavfsizligi davlat milliy xavfsizligining tarkibiy qismi ekanligini xulosa qilish mumkin.

Y.I. Litvinova va S.V. Kissning fikriga ko’ra, “axborot xavfsizligini ta’minlash – bu shaxs, jamiyat va davlatning axborot manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishning murakkab ijtimoiy-huquqiy mexanizmi bo’lib, u davlatning axborot mustaqilligini ta’minlash hamda uning axborot tizimini ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilishni maqsad qiladi”⁹. Muallifning fikricha, bu yondashuv zamonaviy dunyoda juda dolzarb, chunki axborot oqimi shunchalik katta va tezki, uni nazorat qilish yoki himoya qilish uchun faqat texnologiyaga tayanib bo’lmaydi – bu yerda qonunlar, siyosat va ijtimoiy mas’uliyat ham katta rol o’ynaydi.

A.S. Boytsovning talqinicha, “axborot xavfsizligini ta’minlash mexanizmi - bu, avvalo, tahdid manbalarining axborot xavfsizligi tarkibiy elementlariga salbiy ta’sirini oldindan bashorat qilish va bartaraf etishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy va texnik choralar tizimidir”¹⁰. Bu mexanizmning muvaffaqiyati davlatning resurslari va mutaxassislarining malakasiga bog’liq. Agar biror mamlakatda texnik infratuzilma zaif bo’lsa yoki huquqiy baza eskirgan bo’lsa, bu tizim samarali ishlay olmaydi.

Hozirda axborotning ishonchliligi masalasi yanada dolzarblashgan. Agarda bundan 20-30 yillar avvallari axborotning ishonchsizligi inson bilimining sayozligi yoki yanglishish bilan tushuntirilsa, endilikda bunday noxolislik ko’pincha qasddan sodir etilmoqda. Natijada, xorijiy OAV tomonidan tarqatilyotgan har qanday axborotning haqqoniyligini tekshirib ko’rish zarurati yuzaga kelmoqda. Shu nuqtai nazardan axborotning o’zini va uni iste’mol qiluvchi inson va jamiyatni xavfsizlik obyekti sifatida qarash lozim.

Axborot borasidagi xavfsizlik tushunchasining qonunchilik asoslari birinchi navbatda O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida belgilab qo’yilgan. O’zbekistonda demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko’ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi, har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Har kim fikrlash, so’z va e’tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega. Axborotni izlash, olish va tarqatishga bo’lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog’lig’ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minlash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo’riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo’lgan doirada yo’l qo’yiladi.

O’zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to’g’risida”gi Qonunida – axborot borasidagi xavfsizlik tushunchasiga quyidagi ta’rif berilgan: “axborot borasidagi xavfsizlik – axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining himoyalanganlik holatidir”¹¹.

Qonunning 14-moddasida jamiyatning axborot borasidagi xavfsizligiga – “demokratik fuqarolik jamiyati asoslari rivojlantirilishini, ommaviy axborot erkinligini ta’minlash; qonunga xilof ravishda ijtimoiy ongga axborot vositasida ruhiy ta’sir ko’rsatishga,

uni chalg'itishga yo'l qo'ymaslik; jamiyatning ma'naviy, madaniy va tarixiy boyligini, mamlakatning ilmiy va ilmiy-texnikaviy salohiyatini asrash hamda rivojlantirish; milliy o'zlikni anglashni izdan chiqarishga, jamiyatni tarixiy va milliy an'analar hamda urf-odatlardan uzoqlashtirishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni buzishga qaratilgan axborot ekspansiyasiga qarshi harakat tizimini barpo etish"¹² yo'li bilan erishilishi ta'kidlanadi.

Ushbu qonunning 15-moddasida davlatning axborot borasidagi xavfsizligi "axborot xavfsizligini ta'minlash uchun iqtisodiy, siyosiy va tashkiliy choralarni amalga oshirish; davlat sirlarini va axborot resurslarini himoya qilish; O'zbekistonning jahon axborot makoni va zamonaviy telekommunikasiya tizimlariga integratsiyasini qo'llab-quvvatlash; konstitusiyaviy tuzum, suverenitet va hududiy yaxlitlikka putur yetkazuvchi, hokimiyatni zo'rlik bilan o'zgartirishga undovchi axborot tarqalishidan saqlash; urush, zo'ravonlik, shafqatsizlik, terrorizm, diniy ekstremizm va ijtimoiy, milliy, irqiy, diniy adovatni targ'ib qiluvchi axborotga qarshi kurashish"¹³ yo'llari bilan ta'minlanishi belgilangan. Axborot xavfsizligi insonning salbiy ta'sirlar, yovuz kuchlar va zararli g'oyalarning ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilishidan himoyalanganligidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, qonuniy ravishda saylab qo'yilgan prezidentni hokimiyatdan chetlatishga, shaxs sifatida sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi, hokimiyatni bosib olish, davlat rahbari tomonidan olib borilayotgan siyosatga qarshi chiqishga ochiqdan-ochiq da'vat etish, uning oila a'zolarini haqoratlash tarzidagi ma'lumotlarni internet va ommaviy axborot vositalarida tarqatish, izohlar yozish prezidentlik instituti uchun axborot tahdidi sifatida ko'riladi.

Globalashuv va to'liq raqamlashtirish sharoitida davlatning axborot xavfsizligi alohida va izolyatsiyalangan holda mavjud bo'la olmaydi, bugungi kunda noqonuniy harakatlar xavfi xalqaro xarakter kasb etmoqda. Shu munosabat bilan ilmiy hamjamiyat tobora ko'proq "xalqaro axborot xavfsizligi" va "milliy axborot suvereniteti" atamalarini axborot makonini global tahdidlardan himoya qilish kontekstida qo'llamoqda.

M.M. Kucheryaviy milliy axborot suverenitetini "milliy va global axborot makonida siyosatni shakllantirish va amalga oshirishda davlat hokimiyatining ustuvorligi va mustaqilligi"¹⁴ deb tushunadi. D.L. Sivovolov esa "milliy axborot suvereniteti tushunchasini qo'llash zaruratini, chunki hozirgi vaqtda axborot xavfsizligi inson faoliyatining deyarli barcha turlarining ajralmas qismiga aylanganini"¹⁵ ta'kidlaydi. Ushbu yondashuvga asoslanib, "raqamli suverenitet – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida, ma'naviy suverenitet – milliy g'oya va millatning madaniy o'ziga xosligini himoya qilish, shuningdek, davlatning axborot suvereniteti siyosati" haqida gapirish mumkin.

Shubhasizki, axborot davlat uchun strategik resursdir. Uning yordamida jamoat fikriga, saylovchilarga ta'sir ko'rsatish, noqonuniy harbiy, siyosiy va iqtisodiy maqsadlarda foydalanish mumkin. To'liq raqamlashtirish va axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida deyarli barcha axborot endi raqamli tashuvchilarda saqlanadi. Dasturiy ta'minotga qaramlik, ma'lumotlarni uzatish tezligi, onlayn muhitda aloqa

kanallarining katta soni, kontent oqimining nazoratsizligi, axborotning ishonchligi va sifatining pasayishi, uning talqin qilishdagi farqlari – bularning barchasi davlat suvereniteti, barqarorligi va milliy manfaatlarga tahdidlarni keltirib chiqaradi.

Davlatning axborot infratuzilmasi, xususan, kompyuter dasturlari va tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari, boshqaruv tizimlari, internet va axborot makoni noqonuniy ta’sir qilish xavfiga duchor bo’ladi. O’z navbatida, tahdidlar raqobatchi davlatlar va qarshi davlatlar hukumatlaridan, maxsus xizmatlar, terrorchilar, xakerlar, faollar, radikal oppozitsionerlar, biznes tuzilmalar, jinoyat guruhlari va boshqa shaxslar tomonidan kelib chiqishi mumkin.

Turli ilmiy va tarmoq manbalardan olingan ma’lumotlarni umumlashtirib, biz davlatning axborot xavfsizligiga tahdidlarning quyidagi tasnifini 1.1. jadvalda ko’rishimiz mumkin.

1.1. jadval – axborot xavfsizligiga tahdidlarning tasnifi

Tahdid manbalariga ko’ra			
Tashqi (noqonuniy harakatlar raqib davlatlar, jinoiy va terroristik guruhlardan kelib chiqadi)		Ichki (noqonuniy harakatlar siyosiy raqobatchilar, radikal muxolifat, jinoiy tashkilotlar va shaxslar tomonidan sodir bo’ladi)	
Motiviga ko’ra			
Zararli bo’lmagan (tasodifiy yoki befarqlikdan kelib chiqqan tahdidlar)		Zararli (maqsadli, zarar keltirishga qaratilgan tahdidlar)	
Yo’naltirilganligi ko’ra			
Axborot infratuzilmasiga tahdidlar	Axborot resurslariga tahdidlar	Axborot muhitida fuqarolarning huquqlariga tahdidlar	Millat ma’naviy hayotiga tahdidlar
Tahdid obyektiga ko’ra			
Axborot-texnik (kiberhujumlar, kiberjosuslik, kiberterrorizm)		Axborot-psixologik (ijtimoiy muhandislik, axborot urushi)	
Yetkazilgan zarar darajasiga ko’ra			
Kichik	Muhim	Tanqidiy	

Keng ma’noda, davlatning axborot xavfsizligi tanqidiy axborot va uni qo’llab-quvvatlovchi infratuzilmani tasodifiy yoki maqsadli ta’sirdan himoya qilish uchun turli vositalar va usullarni o’z ichiga oladi. Rasmiy darajada davlatning axborot xavfsizligini ta’minlash axborot tahdidlarini prognozlash, aniqlash, to’xtatish, oldini olish, aks ettirish va ularning namoyon bo’lishi oqibatlarini bartaraf etish bo’yicha huquqiy, tashkiliy, razvedka, qidiruv, kontrrazvedka, ilmiy-texnik, axborot-tahliliy, kadrlar, iqtisodiy va boshqa chora-tadbirlarni o’zaro bog’lab amalga oshirishni anglatadi.

Xulosa sifatida texnologiyalar rivoji qulaylik bilan birga yangi tahdidlarni keltirib chiqarmoqda, axborot xavfsizligini davlatning milliy xavfsizligi va suverenitetining ajralmas qismiga aylantirmoqda. Olimlar (R. Anderson, Y.I. Litvinova, S.V. Kiss, A.S. Boytsov va boshqalar) axborot xavfsizligini ta'minlashda shifrlash, huquqiy-tashkiliy choralar va tahdidlarni oldindan bashorat qilish zarurligini ta'kidlaydi. O'zbekiston qonunchiligida axborot xavfsizligi shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya sifatida tasniflanib, Prezidentga qarshi axborot tahdidlari – masalan, uni obro'sizlantirish yoki hokimiyatni zo'rlik bilan o'zgartirishga chaqiriqlar – jiddiy xavf sifatida qaraladi. Global raqamlashtirish sharoitida milliy axborot suvereniteti va xalqaro hamkorlik muhim ahamiyatga ega bo'lib, davlat infratuzilmasi va fuqarolar huquqlarini kiber va psixologik tahdidlardan himoya qilish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrdaqi "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/acts/-52268>.
2. DataReportal ma'lumotlari. <https://datareportal.com/reports/digital-2025-uzbekistan?rq=uzbekistan>.
3. Положихина М.А. Влияние цифровизации на безопасность: от индивидуума до социума / М.А. Положихина // Социальные новации и социальные науки, 2020. – № 1. – С. 10.
4. Кузина С.И. Информационное насилие: аспекты национальной безопасности / С.И. Кузина, Д.А. Мякинченко // Государственное и муниципальное управление. Ученые записки СКАГС, 2017. – № 3. – С. 206.
5. Галютдинов Р.Р. Информационная безопасность. Виды угроз и защита информации // Сайт преподавателя экономики. 2014. <https://galyautdinov.ru/post/informacionnaya-bezopasnost>.
6. Указ Президента Российской Федерации "Доктрина информационной безопасности Российской Федерации". 2016. <http://www.kremlin.ru/acts/bank/41413>.
7. Закон Республики Казахстан "О национальной безопасности". 2012. <https://adilet.zan.kz/rus/docs/Z1200000527>.
8. Anderson, R. "Security Engineering". Cambridge University Press. 2023. <https://www.wiley.com/ens/Security+Engineering%3A+A+Guide+to+Building+Dependable+Distributed+Systems%2C+3rd+Edition-p-9781119642787>.
9. Полунин Е.С. Проблема информационной безопасности государства в современных научных исследованиях / Е.С. Полунин // Воздушно-космические силы. Теория и практика, 2018. – № 7. – С. 44.
10. Литвинова Ю.И. Механизм обеспечения информационной безопасности государства: теоретико-методологические основы / Ю.И.Литвинова, С.В.Кисс // Юрист-Правовед, 2020. – № 2 (93). – С. 49–50.
11. Бойцов А.С. Организационно-правовой механизм обеспечения информационной безопасности пограничных органов / А.С. Бойцов // Актуальные проблемы рос. Права, 2015. – № 2 (51). – С. 38.

12. Кучерявый М.М. Государственная политика информационного суверенитета России в условиях современного глобального мира / М.М.Кучерявый// Управленческое консультирование, 2017. – № 9

(69). – С. 8.

13. Сиволов Д.Л. Новые угрозы национальному суверенитету России в сфере национальной безопасности / Д.Л.Сиволов // Социум и власть, 2015. – № 6 (56). – С. 84.



INNOVATIVE
ACADEMY